
BILASIZMI?



Bayram kunlari xodimlarni ishlatish man etiladi

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan xodimlarni bayram (ishlanmaydigan) kunlari ish beruvchining farmoyishi bo'yicha ishga jalb etishga faqatgina jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo'lsa, - ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilangan asoslar bo'yicha yo'l qo'yiladi.

Ishlab chiqarish-texnika sharoitlari va boshqa sharoitlarga ko'ra ishni to'xtatib turish mumkin bo'lmagan joylarda, aholiga xizmat ko'rsatish zarurati bo'lgan ishlarda, shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan ta'mirlash va yuk ortish-tushirish ishlarida bayram (ishlanmaydigan) kunlari ishlashga yo'l qo'yiladi.

Dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.

Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-20 17:54:25